

YANGI TIL – YANGI IMKONIYAT

Fayzulloyeva Mohigul Farxodovna

*Samarqand davlat chet tillari instituti,
Sharq tillari fakulteti 2-kurs, 2406-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada chet tillarini o'rganishning yoshlar uchun shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Til bilish nafaqat xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga, balki madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga ham yordam beradi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan raqamli ilovalar va onlayn kurslar til o'rganishni yanada oson va qiziqarli jarayonga aylantiradi. Shuningdek, til o'rganishning sog'liq uchun foydalari, jumladan, miya faoliyatini kuchaytirishi va xotirani mustahkamlashi kabi jihatlar ham bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Chet tillarni o'rganish, yoshlar, shaxsiy rivojlanish, kasbiy imkoniyatlar, texnologiya, raqamli ilovalar, madaniyatlararo muloqot, miya faoliyati, ta'lim*

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish nafaqat kelajakdagi muvaffaqiyat uchun, balki shaxsiy rivojlanish va madaniyatlararo muloqot uchun ham zarur hisoblanadi.

Yoshlar til o'rganish orqali yangi dunyoqarashga ega bo'lishadi va o'zlarini rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlarga eshik ochishadi.

Til o'rganar ekanmiz, o'zimiz uchun yangiliklar kashf etamiz. Xuddiki, har bir til ochiladigan yangi qirralarni ifodalaydi. Bunga ispanlar aytgan "Biror tilni bilish – yangi hayotga ega bo'lishdir" maqoli juda to'g'ri keladi.



Chet tilini bilish yoshlar uchun kelajakdagi kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Masalan, Buyuk Britaniyada ish beruvchilar chet tilini biladigan xodimlarga o'rtacha 8-10% ko'proq maosh taklif qilishadi (The economist jurnali,

2016). Bu esa til bilish nafaqat bilim, balki moddiy jihatdan ham foydali ekanini ko'rsatadi. O'z yurtimizda ham xuddi shunday tilni C1 darajada va undan yuqori darajada biladigan o'qituvchilar uchun qo'shimcha ustamalar berilayotgani ham ko'pchilikda chet tillarini o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Demak, yoshlar orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish uchun ularga til bilishning foydalari haqida ko'proq ma'lumot berish kerak. Negaki insonning ko'p bora eshitgan narsasiga bo'lgan qiziqishi tobora ortib boradi. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, chet tillarni bilish nafaqat xalqaro kompaniyalarda ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi, balki xorijiy grantlar va stipendiyalarga ega bo'lish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda texnologiya chet tillarni o'rganishni osonlashtiradigan turli imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamli ilovalar, onlayn kurslar va o'yinlar yangi til o'rganish jarayonini zavqli va samarali bo'lishiga hissa qo'shadi. Masalan, "Duolingo" kabi ilovalar o'ziga xos o'yinlashgan formatda til o'rganishga yordam beradi, bu esa yoshlar uchun til o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Shuningdek, internetdagi ma'lumotlarning qariyb 55 foizi ingliz tilida bo'lib, boshqa tillarni bilish orqali yoshlar o'z qiziqishlariga mos cheksiz bilim manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi (W3Techs, 2021). Bulardan tashqari, rus, arab, xitoy, nemis tillari ham katta ahamiyatga ega.

Chet tilini o'rganish nafaqat intellektual jihatdan, balki sog'liq uchun ham foydali. Psixolog va neyrobiolog Ellen Bialystokning tadqiqotlari til o'rganish miyani rivojlantirishini, xotirani kuchaytirishini va hattoki Alzheimer kasalligining oldini olishga yordam berishini isbotlagan. Til o'rganish yoshlarning diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shunday qilib, yoshlarni til o'rganishga qiziqtirish nafaqat ularning bilimini oshiradi, balki psixologik jihatdan miyya faoliyatiga va sog'liqlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlar uchun chet tillarni o'rganish imkoniyatlari va afzalliklarini yanada kengroq tushuntirish orqali ularning qiziqishini oshirishimiz mumkin. Bu nafaqat ularning kasbiy hayotini yuksaltiradi, balki ularni madaniyatlararo muloqot va kelajakda mustahkam pozitsiyalar uchun tayyorlaydi. "Xo'sh, til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish kimning vazifasi!?", deyishingiz mumkin. Menimcha, bu borada ota-onalar, hamda jamiyat yetakchilari muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun ba'zi hikmatli so'zlar ham turtki bo'la oladi. Misol tariqasida Nelson Mandelaning "Agar siz biror kishining tilida gaplashsangiz, so'zlar uning qulog'iga kiradi, agar uning o'z tilida gaplashsangiz, gaplaringiz uning yuragiga yetadi," degan so'zlari yoshlarimizni chet tillarini o'rganishga ruhlantiradi va boshqalarning madaniyatini tushunishga yordam beradi.

Chet tillarini o'rganish yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ularning xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishiga, balki madaniyatlararo muloqotni yaxshilashga yordam beradi. Texnologik rivojlanish esa bu jarayonni osonlashtirib, yoshlarni til o'rganishga rag'batlantiradi.